

**Murojaatlar bilan ishlash borasida 2025-yilning yanvar-iyun oylarida amalga
oshirilgan ishlar yuzasidan**

MA’LUMOT

Andijon davlat universiteti

Andijon davlat universitetida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlarni olib borish O’zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to’g’risida”gi Qonuni va Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to’risidagi Nizom talablariga asosan olib boriladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi bilan ishlash uchun mas’ul etib jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo’lim boshlig‘i A.Karimberdiyev tayinlandi.

Universitetga kelib tushgan murojaatlarning hisobini yuritish va ko’rib chiqilishini nazorat qilish maqsadida 2018-yil 20-sentabrdagi 01-4/20-son buyruq bilan 4 nafar xodimdan iborat doimiy ishlovchi ishchi guruh tuzilgan.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydag‘i 341-soni qarori va Oliy va o’rta maxsus ta’limi vazirligining 2018-yil 31-maydag‘i 475-soni buyrug‘iga asosan universitetning “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to’risida”gi Nizomi ishlab chiqilgan va 2018-yil 17-sentabr kuni tasdiqlangan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati muntazam ravishda rektor huzuridagi apparat yig‘ilishlarida muhokama etib boriladi. Maqsadli tekshirish natijalari universitet Kangashida ko’rib chiqiladi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida Andijon davlat universitetiga jami 64 ta murojaat kelib tushgan. Shundan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali 33 ta, elektron murojaatlar 18 ta, 12 ta og‘zaki, 1 ta yozma murojaatlar kelib tushgan. Barcha murojaatlar Qonun va Nizom talablariga rioya etilgan holda o’z muddatlarida ko’rib chiqilmoqda.

Jumladan virtual qabulxona orqali kelgan murojaatlar soni 33 ta (51.6%)ni, elektron pochta orqali 18 ta (28.1%)ni, og‘zaki murojaatlar 12 ta (18.7%)ni, yozma murojaat orqali 1 ta (1.5%) tani tashkil etdi.

Virtual qabulxona orqali kelib tushgan 33 ta murojaatdan 8 tasi ijobjiy hal qilindi, 25 tasiga tushuntirish berildi.

Virtual qabulxona orqali kelgan murojaatlarning asosiy mazmuni: Universitet o’quv jarayonlari kredit modul tizimi, kontrakt to’lov masalalari hamda diplom olish va yakuniy davlat imitixoni to’g’risida.

Veb-sayt orqali qilingan murojaatlarning asosiy mazmuni to’lov-kontrakt masalalari, sirtqi ta’limda o’qish masalalaridan iborat.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi qabul qilingan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan

takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidaqgi farmoni, O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida» 2017-yil 11-sentabrdagi 445-Qonuni, 2019-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarli faoliyati bilan bog'liq nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4197-sonli Qarori, Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 7-maydagi "Davlat organlarida, davlat muassalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 341-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018-yil 31-maydagi 475-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida"gi Nizomlar bugungi kunda oliy ta'lif tizimida jismoniy va yuridik shaxslar bilan ishlashni samarali tashkil qilish uchun yetarli asos bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaymiz.



B.B.Akbaraliyev